

R2  
S-98

*Sergey Suxinov*

# ZUMRAD SHAHAR PARISI

*Ertak-qissa*



*Toshkent*  
*"Navro'z" nashriyoti*  
*2016*

## SEHRLI MAMLAKATGA YANGI SAYOHAT



Aziz bolajonlar!

Bir necha avlod kitobxonlarning sevimli yozuvchilaridan biri bo'lgan Aleksandr Volkovning «Zumrad shahar sehrgari» seriyasidagi ertak-qissalari Sizlar uchun allaqachon eng sevimli ertaklarga aylanib ulgurgan. Elli ismli yoqimtoy qizaloqning kulbachasini bo'ron uchirib, sehrlı mamlakatga olib ketgani, u yerda Ellining boshidan kechgan sarguzashtlar, uning Temir O'tinchi, Poxol Qo'riqchi hamda Qo'rqqoq Sher bilan do'stlashgani, barchalari Sariq g'isht yotqizilgan yo'l bo'ylab borib, Zamrad shaharga duch kelganlari, shaharning, «sehrgar» hukmdori Buyuk Gudvindan yordam so'rganlari, Bastindaning sehrlı boshmoqchalari yordamida Ellining uyga qaytgani hamon hozirgiday yodingizda, albatta. Sehrlı mamlakatda istiqomat qiluvchi ko'plab ajoyib qahramonlarning ko'rgan-kechirgan g'aroyib sarguzashtlarini muallifning «Urfın Jyus va uning yog'och askarlari», «Yetti yer osti qiroli», «Marronlarning olov ma'budi», «Sariq tuman» hamda «Tashlandiq qasr siri» kitoblaridan o'qib, bilib olgansizlar.

Keyinchalik Sehrlı mamlakatda qanday hodisalar sodir bo'lgani, u yerdagi o'zgarishlardan esa hammamiz bexabar edik. Chunki ertakchi Aleksandr bobo **keksayib**, sayohatlarga chiqa olmay qolganidan keyin mitti odamchalar o'lkasidan **hech** qanday ma'lumotlar kelmay qo'ydi. Shuning uchun A. Volkovning g'oyibona vorisi Sergey Suxinov Sehrlı mamlakat hayoti bilan tanishish va u yerlik aholining quvuch va tashvishlaridan ertaksevar kitobxonlarni voqif etish uchun olis va xatarli

olamga safarlar qildi. Chunki u ham bizlar kabi Sohira Villinaning, Pari Stellaning, Jodugar Gingemaning va Yalmog‘iz Bastindaning sirlarini, Sariq o‘lkada kimlar yashashini bilishga, Pushti yurtga safar qilishga orzumand edi.

Ana shu sayohatlar sabab bo‘lib, bizlar S. Suxinov yozgan «Gingemaning qizi» kitobini mutolaa etib, jodugar Gingemaning Sehrli mamlakatga qanday kelib qolgani, uning asrandi qizi — yalmog‘iz Korinaning hayoti bilan tanishdik. Bu safar esa «Zumrad shahar parisi» qissasi orqali qizaloq Ellining juda uzoq yillardan so‘ng Sehrli mamlakatga qaytishi, bu sayohat davomida u duch kelgan xavf-xatarlar, qizchanning sodiq do‘stlarining taqdiri va boshqa ko‘plab voqealardan xabardor bo‘lamiz... Darvoqe, o‘tgan juda ko‘p yillar davomida Sehrli mamlakatda boshqa bir qancha o‘zgarishlar ham yuz berganini, masalan Ko‘zpirpiratuvchilar xalqi o‘z nomini ozgina qisqartirib, «Pir-pirko‘zlar»ga aylangani. Ellini ham endi sehrli mamlakat aholisi «Ajalovar Kulba Parisi» deb atayotgani haqida siz bundan avvalgi kitob — «Gingemaning qizi» dan bilib olgansiz, albatta. Bundan tashqari, bir qancha nomlar, ismlar, atamalar ham o‘zgarishlarga uchraganidan xabaringiz bor. Xullas, boshqa yangiliklarni ham sarguzasht davomida bilib boraveramiz... Demak allaqaysi zamonda...


BIRINCHI QISM

# PARINING QAYTISHI

---



**QOVJIRAGAN DASHT**



Oktyabrning quyoshli kunlaridan birida qo'rg'onning yarim vayrona darvozasi yonida sariq taksi kelib to'xtadi. Haydovchisi — ko'zlari kulib turuvchi, yuzlari qip-qizil yigit — yengil xo'rsinib qo'ydi va peshanasidagi terni artidi.

— Mana, xonim, yetib ham keldik, — dedi u. — Qadrdon ko'hna Kanzasimizda bunaqa yovvoyi, ayiq iskamas joylar borligini bilmas ekanman. Dasht bo'ylab uch soat yurib, bitta ham tirik jonni uchratmadik-a!

Taksichining yonida o'tirgan, sochining gajaklariga oq oralagan, yuzlari shaftoliqoqidek burishgan, shapko'r ko'zlariga qalin oynali ko'zoynak taqqan keksa ayol unga norozi nigoh tashladi.

— Sen bu joylar juda yomon nom chiqarganini bilmasmiding, o'g'lim? — xirillagan ovozda so'radi u. — Aytishlaricha, ellik yillar muqaddam bu yerlarda bir jodugar yashagan ekan. Shu bois dasht tuprog'ida jo'xori ham, bug'doy ham unmas emish. Yomg'ir ham juda kam yog'adi... Yuklarimni uygacha olib borishga yordamlashib yubor, bolam, — negadir to'satdan shoshilib qoldi keksa xonim. — Tez orada kech kiradi, men esa hali joylashib olishim, o'choqni yoqishim kerak. Tunda sovuq tushadiganga o'xshayapti.

Yigit eskiligidan qulab tushay deb turgan, tomining yarmi o'pirilgan va derazalariga taxta mixlab yopib tashlangan katta yog'och uyga xavotir bilan

qarab qo‘ydi. Atrofdagi hamma narsa tashlandiqlikdan dalolat berib turardi: pichanxona vayron bo‘lgan, qulagan otxonaning yonginasida sichqonlar kemirib tashlagan charm kursi dumalab yotibdi.

— Shoshmang xonim, — sarosimada murojaat etdi taksichi. — Siz rostdan mana shu palakat joyda tunab qolmoqchimisiz? Bu yerda yashab bo‘lmaydi-ku! Siz bilan bundoq kelishib olsak: siz bir-ikki kungina shu yerda qolasiz, keyin men kelib sizni olib ketaman. Bo‘ptimi?

— Yo‘q, — bosh chayqadi kampir. — Sen mendan xavotir olma, bolam, men bu yerda yaxshi yashayman. Umrim ham poyoniga yetib qoldi o‘zi...

Haydovchi qancha bahslashmasin, kekxa ayolni esini yig‘ib olishga, nabiralari haqida o‘ylashga ko‘ndirishga urinmasin, kampirga so‘zi o‘tmadi.

«Kampir aqldan ozibdi, — o‘yladi haydovchi mashinasiga o‘tirayotib. — Balki u rostdan ham yalmog‘izdir? Bergan pullari afsunlangan bo‘lsa-yu, shaharga borgunimcha oddiy qog‘oz parchalariga aylanib qolsa-chi? Mayli, shu yerdan eson-omon qutulib ketsam bas!»

U o‘t oldirgichni buradi, va joyidan keskin qo‘zg‘alib, ortidan chang-to‘zon bulutlarini ko‘targanicha, dasht bo‘ylab yelib ketdi.

Kampir bu vaqtda ostonaga zinasidan qiyinchilik bilan ko‘tarilib borardi. Eshik qulflanmagan edi — unga kim ham tajovuz qilardi? Kekxa ayol tashlandiq uydagi xonalarning uchovini ham aylanib chiqdi. Devoro‘choqda bir nechta g‘o‘la bor ekan. Tez orada u yerda sho‘xchan gulxan alangalandi. Kampir kursini devoro‘choqqa yaqinroq surib, jomadonidan shol ro‘molini oldi va olovga yaqinroq o‘tirdi. U alanganing o‘ynoqi tillariga tikilib o‘tirganicha, xayolga tolib o‘ylayverdi, o‘ylayverdi...

Bir payt qandaydir shitirlashni eshitganday bo‘ldi. «Nahotki bu yerda hali ham sichqonlar bor bo‘lsa?» — hayrat bilan o‘yladi va xonaning qorong‘i burchaklarini kuzata boshladi. Shitirlash yana takrorlandi — lekin tovush yerdagi taxta to‘shamaning son-sanoqsiz tirqishlaridan emas, balki deraza tomondan kelayotgan edi. Kampir xohlamasdangina o‘rnidan turdi. U bir qadam ham qo‘yib ulgurmasidan, ochiq deraza orqali xuddi ninachining qanotlari kabi to‘rlangan qanotlarini shitirlatib, uchta mittigina mavjudotlar uchib kirishdi.

— Salom, Elli! — jarangdor tovushda salomlashdi mavjudotlardan biri. — Bizlar elflarmiz, seni izlay-izlay nihoyat topdik!

Kampir titrab ketdi. Shapko‘r ko‘zlarini qisib, boshi atrofida aylanayotgan elflarning yuzlarini ko‘rishga urindi.



— Meni kim deb atadinglar?... — **titroq** tovush bilan so‘radi u.

— Elli! Elli Smit, bir paytlar Sehrli mamlakatda bo‘lib qaytgan qizcha! — kuy ohangida javob berishdi afsonavor mavjudotlar aylana parvozlari to‘xtatmasdan.

— Lekin... meni qanday tanidinglar? — ajablanib so‘radi kampir. — Qachonlardir mitti qizaloq bo‘lganimga ba‘zan o‘zim ham ishonolmay qolaman. Qo‘llarim quruqshab, belim bukildi, yuzimni ajin bosdi...

Elflardan biri bitta o‘mbaloq oshib, uning yelkasiga joylashib o‘tirdi va yarqiroq qanotchalarini ehtiyotlab yig‘ib oldi.

— Buning qiyin joyi yo‘q, — tushuntirdi unga xuddi billur qo‘ng‘iroqchaday jarangdor ovoz bilan elf. — Bizning ko‘zimizga barcha jonzotlar xuddi bolalik paytlaridagiday qiyofada ko‘rinishadi. Agar siz, odamlar, yill<sup>1</sup> o‘tgani bilan xuddi navqironlik davringizdagi kabi aqlli va samimiy bo‘lib qolaveringizda edi...

Smit xonim beixtiyor jilmayib qo‘ydi.

— Ehtimol so‘zlaringiz o‘rinlidir... Lekin meni nima uchun izladinglar?

Elflarning ikkitasi eman yog‘ochidan ishlangan miz<sup>1</sup> ustiga o‘tirib olib, sovqotgan mitti oyoqchalarini devoro‘choqning o‘ynoqi alangasiga tutishdi. Keks ayolning yelkasiga joylashib olgan uchinchisi esa xo‘rsinib javob berdi:

— Buning tarixi uzun, Elli. Uzoq va qayg‘uli hikoya. Katta olamda insonlar ulkan shaharlarni barpo etishni boshlagan davrlardan beri biz, afsonavor mavjudotlarning hayot kechirishimiz og‘irlashib ketdi. Bir paytlar, qadim-qadimda donishmand afsungar Torn Afsonavor xalqning insonlar qo‘lidan ajal topishini bashorat qilgan edi. U odamlarning butun yer yuzini o‘zlashtirib olishlarini, g‘aroyib o‘tloqlarni shudgorlab yuborishlarini va qalin o‘rmonlarni kesib tashlashlarini aytib, ogohlantirib ketgan edi... Afsungar hamma jonzotlarga Aylana Dunyo tog‘lari ortidagi, inson ko‘zidan pinhon bo‘lgan Sehrli mamlakatga ko‘chib ketishni maslahat bergan. Afsuski Torniga ko‘pchiligimiz ishonmadik. Uning bundan jahli chiqib, aytgandi: «Bo‘pti, o‘zlaringiz istaganday yashayveringlar! Bundan buyon mening mamlakatim nafaqat odamlar uchun, hatto sizlar uchun ham yashirin bo‘ladi. Uni hatto sehrgarlar ham topa olmaydilar. Lekin shunga ishonchim komilki — bir kun kelib sizlarning avlodlaringiz eslarini yig‘ib olishadi va Sehrli mamlakatga borishni istab qolishadi. Bilib qo‘yinglar, ularga yordam bera oladigan yagona inson — qizaloq Elli bo‘ladi!»

---

<sup>1</sup> Miz — stol.



Afsonavor xalq avvaliga o'rmon changallarida jon saqladi. Keyin esa tog'daralar ular uchun panagoh bo'ldi. Ko'plab jasur o'g'lonlarimiz Sehrli mamlakatni izlab topishga harakat qilishdi, ammo ulardan birortasi ham xushxabar bilan qaytishga muvaffaq bo'la olmadi. Bir kuni bizga Aylana Dunyo tog'larini oshib o'tib, Torn mamlakati aholisi bilan do'stlashgan kanzaslik qizchaning sarguzatlari haqida xabar kelib qoldi. Biz seni juda uzoq yillar izladik, Elli. Nihoyat men — Logina, dugonalarim Nayta va Mayra seni Kanzas-Sitidan topdik. Keyin ortingdan bu yerga — Qovjiragan dashtga keldik...

Logina o'zining uzundan-uzoq hikoyasidan charchab ketib, jim bo'ldi. Smit xonim unga achinib, yaltiroq qanotlarini silab qo'ydi.

— Sizlar Sehrli mamlakatga yo'l ko'rsatishimni xohlaysizlarmi? — muloyimlik bilan so'radi u. — Lekin men yo'lni bilmayman!

— Bo'lishi mumkin emas! — xitob qilishdi elflar vahima bilan, va havoga ko'tarilib, xavotir ichida shiftning tagida doira chizib ucha boshlashdi.

— Afsuski, bu rost, — ma'yuslik bilan dedi Smit xonim. — Birinchi marta meni Aylana Dunyo tog'lari osha qudratli bo'ron olib o'tgan edi. Yo'l bo'yi men Totoshka degan kuchukcham bilan uychada qimirlamay o'tirganman. Kanzasga esa biz Gingemaning kumush boshmoqchalari yordamida qaytganmiz. Keyinchalik men ko'p marta Sehrli mamlakatni xaritalardan topishga urindim, lekin ularda hatto Buyuk sahroni ham topa olmadim.

— Juda afsuslanarli! — xitob qildi Logina. — Lekin sening ota-onang...

Smit xonimning qoshlari chimirilib, uzoq vaqt jim qoldi.

— Ularning halok bo'lganlariga hanuzgacha ishongim kelmaydi... — bo'g'i q ovozda gap ochdi u nihoyat. — O'ttiz yillar muqaddam bu yerda dahshatli qurg'oqchilik yuz bergandi. Shundan ikki yil o'tib, men ota-onamning yonlariga mehmon bo'lib keldim. Lekin uy bo'm-bo'sh edi. Men o'sha atrofda quyunning izlarini topdim, xolos. Nazarimda, ularni quyun halok qilgan bo'lsa kerak. Kanzas-Sitida men politsiyaga murojaat qildim, lekin ular menga hech qanday yordam bera olishmadi. Ota-onamning taqdirlari haqida hech qanday ma'lumot olo'lmasdan Pensilvaniyaga qaytdim. Bir yil avval erim ham vafot etdi va men yolg'iz qoldim. Bizning farzandlarimiz ham yo'q. O'ylay-o'ylay men shu yerga — qadrdon maskanimga qaytishga qaror qildim. Hayotimning so'nggi kunlarini shu yerda o'tkazsam nima bo'пти, to'g'rimi?

Elflarning qanotlari nochor shalpayib tushdi.





— Sen bizning yagona umidimiz eding, Elli, — dedi so‘niq ovozda Logina va alamidan yig‘lab yubordi. — Nahotki hech qanday natijasiz ortga qaytsak?

Smit xonim elflarga achinish bilan qaradi va nimalarnidir o‘ylab xayolga soldi.

— To‘xtanglar! — nihoyat xitob qildi u — Bitta mulohazam bor... Kanzasga oxirgi marta kelishimdan bir yil o‘tib, menga bir tanish uchuvchi qo‘ng‘iroq qiluvdi. U tavakkal qilib Qovjiragan dasht ustidan uchib o‘tgan. Uning aytishicha, yuqoridan turib shimoli-sharq tomonga cho‘zilib ketgan quyun izlarini ko‘rgan ekan. Balki uyurma o‘sha tomondan kelgandir? Lekin uni kim yuborgan bo‘lishi mumkin? Axir endi Gingema ham, Bastinda ham yo‘q-ku?... Agar... ehtimol... Yoki sehrli mamlakatda boshqa biror yovuz afsungar paydo bo‘lib qolganmikan? Balki u mendan Gingema bilan Bastindaning qasosini olmoqchidir? Agar shunday bo‘lsa, mening uyimga qaytganimdan allaqachon xabar topgan bo‘lishi kerak.

— Voy sho‘rim! — qo‘rqib dod soldi Nayta, lekin Logina unga jahl bilan qarab qo‘ydi.

— Demak, tez orada Aylana Dunyo tog‘lari ortidan mehmonlar tashrif buyurishadi, — dedi u. — Agar biz jodugarni yenga olsak, balki undan Torn yurtiga olib boradigan yo‘lni bilib olarmiz.

— Biz uning afsunini daf eta olmaymiz-ku? — nadomat bilan dedi Smit xonim. — Boz ustiga, men olishuvga ham yaramayman...

Elflar xuddi maslahat qilishayotganday bir-birlariga o‘zaro ma‘noli qarab qo‘yishdi. Keyin Logina yana kampirning yelkasiga uchib chiqdi, oyoq uchida turib, uning qulog‘iga pichirladi:

— Bizning sehrli naylarimiz bor. Agar uchovimiz Devlar marsiyasini chalsak, Afsonavor xalq bizga yordamga keladi. Ularning ko‘pchiligi allaqachon yo‘lga chiqib ham bo‘lishgan! Do‘stlarimiz safida esa bizga hech qanday afsungarlar qo‘rqinchli emas! Bundan tashqari, biz senga yoshligingni qaytarib bera olamiz.

— Nima?... Nimani nazarda tutyapsan? — o‘z quloqlarigva ishonmasdan pichirladi kampir. Uning yuragi bezovta ura boshladi — nahotki bolalikka qaytib, o‘tgan yillarning og‘ir yukini unutishning imkoni tug‘ilgan bo‘lsa?

— Ha, biz seni mitti Elliga aylantira olamiz — qadrdon uyingdan jo‘nab ketgan yillaringga qaytaramiz.

— Men o‘shanda o‘n ikki yoshda edim, — pichirladi kampir ko‘zida yosh bilan. — Lekin... men o‘tgan umrimni butunlay unutib yuboramanmi? Mening ajoyib, mehribon erim, juda ko‘p do‘stlarim, maktabda sevimli ishim bor edi...



— Afsus, bizning sehrimiz ko‘pga yetmaydi. Besh kundan keyin osmonda birinchi yulduz charaqlashi bilan afsun tarqalib ketadi... O‘shanda sen yana kekxa holingga qaytasan. Lekin agar shu vaqt ichida biz Tornning mamlakatiga kirib bora olsak, sohira Stella seni keksalikdan xalos qiladi. U tomonda — Aylana Dunyo tog‘lari ortida sen umrbod yosh qizcha bo‘lib qolasan!

— Stella... — hayajon bilan pichirladi kampir. — Biz qachonlardir dugonalar bo‘lgandik. Ha, u yordam bera oladi!...

— Sen endi tavakkal qilishga tayyormisan? — so‘radi Logina.

— Shuni ham so‘rab o‘tiribsanmi? — yuzlaridan oqib tushayotgan ko‘z yoshlari orasidan jilmayib javob berdi Smit xonim.

Logina shift tagiga uchib chiqdi va dugonalari ham unga ergashishdi. Belbog‘lariga qistirilgan naylarini olib, sho‘x kuyni chala boshlashdi. O‘choqdagi alanga yanada yorqinroq yondi va birdaniga xona qip-qizil uchqun zarralariga to‘ldi. Kampir yuzlari va qo‘llari qattiq qiziganini his etib, bir titrab tushdi. Kuy uni o‘ziga maftun etdi va kekxa xonim ko‘zlarini yumib, orzular ichra tabassum qilganicha, chir aylanib raqsga tusha boshladi. Shu kuy ohanglariga u olis-olis bolaligida, Yangi yil bayramida juda ko‘p martalab raqs tushganini esladi...

O‘choqdan tutun bulutlari o‘rlab, xonani to‘ldirib yubordi. Naylarning navosi balandroq yangray boshladi. Smit xonim hayratlanarli darajada yengil nafas olardi, uning beli uzoq yillar davomida ilk bora sarv daraxtiday tik holga keldi...

Tutun tarqalib ketganida xona o‘rtasida bir qizcha turardi. Ko‘ylagining o‘ziga mos bo‘lmagan kattaligidan yelka tomoni xo‘lpillab osilib qolgandi. U sarosimada o‘zining mayin, tutundan bir oz qorayib qolgan yuzini astagina ushlab ko‘rdi, ingichka, silliq qo‘lchalariga qaradi, barmoqlari bilan qalin sochlarini to‘zg‘itib ko‘rdi.

— Salom Elli, Ajalovar Kulbaning parisi! — baravar salom berishdi elflar. Ular miz ustiga qo‘nib, naychalarini belbog‘lariga qistirishdi va shaffof qanotchalarini shitirlatganlaricha, chuqur ta‘zim bajo etishdi.

— Salom, do‘stlarim, — ko‘zida yosh bilan shivirladi Elli. — Men bunga ishonardim, hech qachon o‘lmasligimni bilardim! Bolalar hech qachon vafot etmasliklari kerak, men esa hech qachon o‘zimni kattalarday his etgan emasman...

— Albatta-da, — qizchaga maroq bilan boqib, zavqli kulib qo‘ydi Logina. — chunki sen ham bizlardansan, sen — parisan! Endi esa yaxshilab dam ol, erta tongda yo‘lga chiqishimiz kerak...



## *Ikkinchi bob*

### QUYUN IZIDAN



Elli tun bo'yi ko'z yumradi. U onasining eskigina katida<sup>2</sup> yotganicha, shiftning quruqshab ketgan taxtalaridagi o'rgimchak to'riday to'rlab ketgan yoriqlarga tikilardi. Bugungi bo'lib o'tgan voqea haqiqiy mo'jiza edi. So'nggi yillarda uni azoblab kelayotgan dardlaridan forig' bo'ldi, yuragi shodon ura boshladi, tomirlarida qoni o'ynoqlab oqyapti. Uning quvonchdan qiyqirib, o'rnidan turib, raqsga tushib yuborgisi kelardi. Uning yashirin orzulari ro'yobga chiqdi, u yana yosharib qoldi! Elflar aldashmagan edi — u o'zining voyaga yetgan yillaridagi hayotini xotirlay olardi. Lekin hozir unga barcha kechmishlari o'zi bilan emas, balki Elis Smit ismli qandaydir begona ayol bilan yuz berganday tuyulardi...

Elli bir necha marta o'rnidan turib, devoro'choq yonidagi kursichada uxlab yotgan elflarga qarab qo'ydi. Nahotki bo'yi barmoqday ham kelmaydigan shu mitti mavjudotlar shunday mo'jizani sodir etgan bo'lishsa. Ularning sehlari oldida bir joydan ikkinchi joyga bir lahzada ko'chib o'ta oladigan Villinaning qobiliyatiyu, Gingemaning bo'ronlar ustidan hukmronlik afsunlari hech narsa emas-ku?! Bo'ronlar...

Qizcha ertaga qovjiragan, jonsiz dasht bo'ylab kechadigan safarlarini o'ylab, eti junjikdi. Bu telbavor urinish nima bilan tugashini kim ham bilardi deysiz? Agar ularning Sehrli mamlakatdan kelgan pinhoniylar dushmanlari Ajalovar

<sup>2</sup> Kat — karavot.

Kulbaning parisini payqamay qolsa va o'zi bu yerga kelmasa, u holda Elli yana qarib-qartaygan kampirga aylanib qoladi va umrining oxirigacha shunday qolib ketadi. Balki keyin uning qo'rg'onga qaytishga ham madori yetmas... ammo, qari kampirga qayerda jon berishning nima ahamiyati bor? Lekin dushman uning shu yerda — Kanzasda ekanini sezib qolsa... Yovuzning quturgan qudratiga to'rt nafar kichkintoylar bas kela olisharmikan? Logina va'da berganiday, Afsonavor xalq bularga yordamga kelarmikan?

Ikki marta Elliga ko'hna uyning devorlari ortida kimningdir yashirincha pisib kelayotgani eshitilganday bo'ldi. U qo'rquvdan toshqotganicha, tirishib quloq soldi... Yovvoyi itlarmikan? Yo tulkilarmi? Bu gadoy topmas ovloqda tulkilar nima qilsin...

Ertalabga yaqin qizcha uxlab qoldi. U juda qo'rqinchli tush ko'rdi: go'yo uyg'onib ketganmish-da, qorong'i deraza ortida kimningdir sochlari to'zg'igan, telbavor, yovuz basharasiga ko'zi tushganmish. Yalmog'iz — bu faqat yalmog'izgina bo'lishi mumkin — qiyshiq-qing'ir, sarg'ayib-chirigan tishlarini irg'ishlatib, qahrli irshayish bilan unga tikilib turganmish. Yalmog'izning uzun oqarib ketgan kipriklar bilan o'ralgan, xuddi shilliq kabi jirkanch kulrang ko'zlarining qorachiq'lari yo'qmish. Ora-sira tuk o'sgan dahani yoqimsiz titrab, tirnoqlari kirlanib ketgan, har tomonga tarvaqaylagan barmoqlari bilan deraza oynasini timab g'ijirlatarmish... «Mana endi sen mening changalimdasan, pari Elli — masxaralab vishillabdi yalmog'iz. — Sen bilan hisob-kitob qiladigan vaqt ham yetib keldi...»

Ellini derazadan tushgan quyosh nurlari uyg'otib yubordi. Olovrang bo'lib endigina ufqdan bosh ko'targan oftob dashtni sariq va ol ranglarga burkadi. Baland osmonda o'tib borayotgan momiqsimon bulutlar to'dasi nimadandir qo'rqqanday, shosha-pisha janub tomonga jo'nab qoldi.

Elli o'rmidan sakrab turdi va deraza tomonga yugurib kelib, uning tabaqalarini ochib yubordi. Qizcha muzday havodan chuqur nafas olgach, shodon qichqirdi:

— Turinglar! Elflar ham shunaqa uyqichi bo'larkanmi?

Logina shiringina kerishdi va kursidan sakrab turib, qanotlarini yozdi, havoda chiroyligina bir aylanish qildi.

— Xayrli tong, Elli, — uning ovozi kumush jarangiga o'xshardi. — Bizlar uyqichi emasmiz, shunchaki mizg'ishni juda yaxshi ko'ramiz. Ey, Nayta, Mayra, turinglar, bo'lmasa gulning bolidan bebahra qolasizlar.

Bu gap mittioylarga darrovgina ta'sir qila qoldi. Elflar birgalikda havoga parvoz qilishdi va ko'chaga uchib ketishdi. Ular tashlandiq poliz jo'yaklarida qandaydir so'lg'in gullarni topishdi va chirillab-hingillaganlaricha shabnamda yuvinib, gullardan bol simirishdi. Elli ham hovliga yugurib chiqdi. Uning har bir harakati yangidan yashargan tanasiga rohat bag'ishlardi — qizchanning harakatlari benihoya yengil va tabiiy edi!

Ostona pillapoyalaridan sakrab o'tganicha, u quduq yoniga yugurdi. Xayriyatki, u hali qurib bitmabdi: quduqning eng tubida suvning sirti yaltirab ko'rinadi. Elli eski chig'imi g'ijirlatib, chelakni quduqqa tushirdi va ko'p o'tmay muzdekkina suvni yutoqib-yutoqib icha boshladi.

Qizcha yuvinib olgach, yengilgina nonushta qildi va yo'lga tadorik ko'ra boshladi. Shu zahotiy oq murakkab muammoga duch keldi — ilgari kampirik ko'ylagi o'ziga nihoyatda kattalik qilib, bundan tashqari, uni endi kiygisi ham kelmay qolgandi.

Logina ham o'ylanib qoldi.

— Xmmm... men senga istagan libosingni paydo qilib berishim mumkin, hatto malikalar ko'ylagini ham... lekin u faqat besh kunga yetadi, — dedi u xijolat bilan. — Balki uyingda biror ko'ylak topilib qolar?

Elli zavq bilan qarsak chalib yubordi.

— Bo'imasam-chi! Unutganimni qaranglar-a! Qayerdadir bolalikdagi ko'ylaklarim solingan sandiqcha bor edi — oyim liboslarimni tashlab yuborishni hech ham istamas edilar.

Xonalarni shuncha qidirsam ham, hech narsa topilmadi. Keyin Ellining xayoliga chordoqqa ko'tarilish fikri kelib qoldi. U vaqtlar o'tishi oqibatida buralib-yorilib, omonat bo'lib qolgan narvondan qo'rqa-pisa ko'tarila boshladi. Oxirgi ikki pog'onasi shunaqangi chirib ketgan ekanki, qizchanning og'irligini ko'tara olmasdan, qarsillab sinib, bo'lak-bo'lak bo'lib ketdi. Elli qopqasi ochiq turgan chordoqning chekkasidan ushlab qolishga zo'rg'a ulgurdi. U qiyinchilik bilan yuqoriga chiqib oldi va o'zini chang-g'uborlar saltanatida ko'rdi. Chang pardasi atrofda hamma narsani qalin qatlam bilan qoplāb olgandiki, arzimagan harakatdan ham atrofga kulrang g'ubor buluti ko'tarilar edi. Qizcha changdan bo'g'ilib va og'ir yo'talib, tunuka qopqoqli eski eman sandiqchani qidirib topdi. Baxtiga, uning qulfi ochiq ekan. Sandiqni hali titkilab ulgurmasidanoq, Elli qo'lida yirik qizil no'xot gulli oppoq ko'ylakni ushlab turardi.

«Ana xolos! Qachonlardir men xuddi mana shu ko'ylakda Zumrad shaharga birinchi sayohatimni amalga oshirgan edim-a!» — yuragi hapqirib o'yladi Elli. U sariq g'isht terilgan yo'l bo'ylab uzoq va xatarli safarga chiqqani, kulgili Qo'rqinchli Qo'riqchi, oqko'ngil Temir O'tinchi, va Qo'rzoq Sher bilan ilk uchrashuvlarini yodga oldi. Ular birgalashib Buyuk va Dahshatli Gudvinning saroyiga har biri o'z tilagi bilan kelishgan edi. Qo'riqchi aqlli bo'lishni istardi. O'tinchi o'zining bo'm-bo'sh temir ko'ksida mehribon yurak urib turishini orzu qilardi. Qo'rzoq Sher esa Hayvonlar Shohiga xos bo'lgan dovyuraklikka erishishdan umidvor edi. Gudvin bu to'rtovlon do'stlar bilan navbatma-navbat uchrashdi. U har safar o'z qiyofasini o'zgartirardi — bir safar dahshatli mahluqqa aylansa, boshqa gal olovlanib turgan kurra (sharcha) bo'lib qolardi...

Sehrgar mehmonlarning iltimoslarini bajarishga rozilik berdi, ammo ularning oldilariga qat'iy shart qo'ydi: ular shafqatsiz Bastinda hukmronlik qilayotgan Binafsha mamlakatga kirib olishlari va jodugarni qanday qilib bo'lsa ham halok etishlari lozim edi. Lekin do'stlar g'alaba bilan qaytganlarida Gudvin o'z va'dasidan tonib ketmoqchi bo'ldi.

Afsuski, u Sehrli mamlakatga tasodifan tushib qolgan oddiy odam bo'lib chiqdi, boz ustiga o'taketgan yolg'onchi ham ekan. Lekin topqirlikda Gudvinga yetadigani yo'q edi. U Ellidan boshqa barcha mehmonlarida o'ziga bo'lgan ishonch yo'qligini anglab bo'lgan ekan. To'g'no'z'ichlar, poxol to'ldirilgan bir bo'lak qizil mato va giyoh damlama yordamida u Qo'riqchini, O'tinchini va Sherni orzulariga erishtirdi. Gudvin qizchaga ham yordam bermoqchi edi-yu, lekin Elli savatga sakrab chiqib olishga ulgurmasidan, qattiq bo'ron epkini havo kurrasini uchirib ketdi. Ammo qizcha baribir Vataniga qaytishga muvaffaq bo'ldi — Gingemaning g'oridan Totoshka topib olgan kumush boshmoqchalar sehrli ekan...

\* \* \*

— Namuncha bu yerda imirsilamasang? — norozi bir ohangda so'radi Logina ochiq tirqishdan chordoqqa uchib kirayotib. — Biz allaqachon... a-aaap-chu!... yo'lda bo'lishimiz kerak edi. Bu yerda qolish juda xavfli!

— Xavfli? — ajablandi Elli. — Men o'zimning qadrdon uyimda nimadan qo'rqishim kerak ekan?

U omonat narvondan pastga tushib, mehmonlar kutiladigan xonaga kirdi, bolaligidan xotira bo'lgan eski ko'ylagini kiydi va o'zini tutolmasdan, ancha vaqt



ko'zgu oldida aylanib-o'rgilib yangi qiyofasini tomosha qildi. Ko'ylak ozgina g'ijimlangan, ammo hayratlanarli darajada yaxshi saqlangan edi. «Imkon bo'lishi bilan uni yaxshilab yuvib, dazmollatib olishim kerak» — xayolga berildi Elli, lekin elflar qizchani yana shoshiltira boshlashdi. O'zining kichikkina yo'lxaltasiga tez-tez oziq-ovqat va ikki shisha suv g'amlab olgach, qizaloq nihoyat uydan chiqdi. Uni qandaydir bo'zrang qorong'ilik, etni junjiktiradigan sovuq shamol va endigina kuchayishni boshlayotgan yomg'ir tomchilari kutib oldi...

Tonggi ochiq havodan endi asar ham qolmagandi. Osmonni rutubatli qora bulutlar qoplab olgan.

— Bo'lishi mumkin emas! — xavotirli pichirladi qizaloq, tashvish bilan atrofga alanglab. — Hozirgina quyosh charaqlab turgan edi-ku...

— Bunisi hali holva! — Loginaning so'z ohangida kuchli vahima bor edi. — Sen yaxshisi, yerga nazar sol.

Elli ko'zlarini pastga tikdi va dahshatdan dodlab yubordi. Ostona yaqinida kattakon chuqurlar qorayib turardi... bular ulkan oyoqlar qoldirgan qadam izlari edi! Izlar uy atrofini aylanib o'tib, mehmonxona derazasi qarshisida to'xtagandi.

— Demak, tush emas ekan... — o'zicha pichirladi Elli.

Elflar unga hayron qarab qolishdi va qizcha ularga tunda ko'ziga ko'ringan ro'yo haqida so'zlab berdi.

— Yalmog'iz? — ajablendi Logina. — U holda nima uchun biz — elflar uning yaqinlashganini his etmadik? Sezgimiz shu paytgacha bizga pand bergan emasdi.

— Agar u Sehrli mamlakatdan uchib kelgan bo'lsa-chi? — taxmin qildi Mayra qo'rquvdan eti junjikib: u qattiq dahshatga tushib qolgandi.

Logina dugonasiga jahl bilan tikildi.

— Qo'rqishga hozircha sabab yo'q. Lekin nima uchun uxlab yotganimizda yalmog'iz bizlarga hamla qilmadi ekan? U bizni uyqimizda osongina nobud qilishi mumkin edi-ku?...

Bir oz o'zaro maslahat qilishgach, do'stlar havo ra'yining buzilib borayotganiga qaramasdan yo'lga tushishga qaror qilishdi.

## Uchinchi bob


### ROBERT AMAKINING QO'G'IRCHOQLARI



Do'stlar qachonlardir qudratli quyun o'yib ketgan keng shudgorni topishga urinib, dashtda uzoq vaqt sarson bo'lishdi. Avvaliga elflar Ellining ortidan tetik-bardam uchib borishdi va hatto uning boshi tepasida kumush ohanglarda kuylab, raqs tushishdi. Lekin kun yarmiga kelib ular juda charchab qolishdi. Mittioylar qarshidan esayotgan shamolga dosh berishlari oson emas edi, bundan tashqari ularning yupqa, nozik qanotlari muzday yomg'irning siyrak, lekin yirik tomchilaridan ho'l bo'lib ketdi. Oxir-oqibat qizcha ularni o'z yelkasiga o'tqizib oldi va qaysarlik bilan boshini egib olganicha, chamalab yo'l bosa boshladi. U qachonlardir bo'ron izini qayerda ko'rganini hech eslay olmasdi.

Yo'lning dastlabki chaqirimlarini Elli o'yinqaroqlik bilan o'tib bordi. Ammo rutubatli iqlim tezda uning ko'ngliga g'ashlik sola boshladi. U tez-tez tunda ko'rgan tushini — o'zining yovuz va qahrli nigohi bilan tikilib turgan yalmog'izni eslayverardi... Elflarning rejalari endi unga bema'ni va ajalovar xatarli tuyula boshladi. Qo'lida birorta quroli bo'lsa ham mayli edi... Ochig'ini aytganda, qanday qurol ham afsungarlikdan asray olardi?

Yomg'ir tobora kuchayib borardi. Osmonga qarashga ham qo'rqadi kishi. Qora bulutlar quturmoqda: bir-biriga qarshi shiddat bilan bostirib kelib, xuddi ulkan qozonda qaynayotganday vahshat bilan ko'piradi. Tez orada qayerlardandir momaqaldiroqning birinchi bo'g'iq gumburi eshitildi.





Logina oyoq uchida turib oldi-da, Ellining qulog'iga, xuddi birov eshitib qolishidan qo'rqqanday, asta pichirladi:

— Balki qaytib ketganimiz ma'quldir? Nazarimda, sen yo'ldan adashganga o'xshayapsan.

Elli qaysarlik bilan bosh chayqadi:

— Yo'q. Biz olg'a boraveramiz.

— Lekin hozir jala boshlanadi! — e'tiroz bildirdi Logina. — Biz elflar esa namlikka dosh berolmaymiz.

— Qayerdadir shu atrofda qo'shnimiz Nortonning qo'rg'oni bo'lishi kerak, — ishonchsizgina javob qaytardi qizcha va zulmat qoplagan tevarak atrofga diqqat bilan ko'z tikdi. — Biz dadam bilan uning yoniga juda ko'p marta kelganmiz...

U shunchalik qo'qqisdan to'xtadiki, hatto elflar uning yelkasidan yiqilib tushishlariga bir baxya qoldi. Oldinda esa olislarga cho'zilib ketgan o'zansimon keng maydonning jonsiz tuprog'i ko'zga tashlandi. Har joyda sochilib yotgan ulkan kesaklarni uzoq yillar davomida quyosh kuydiraverib, toshga aylantirib yuborgan edi. Dashtning ba'zi joylarida onda-sonda ko'rinib qoluvchi so'lg'in o'simliklardan bu yerda asar ham yo'q edi.

— Quyun... — deya shivirladi qizcha. — Ota-onamni uchirib ketgan quyun qoldirgan izlar.

— Himoyasiz yo'lovchilarga hamla qilish uchun eng qulay joy, — dedi tashvish bilan Logina va ulkan kesak bo'lagi ustiga qanot qoqib uchib o'tdi. — Hayronman, nima uchun sen tushingda ko'rgan yalmog'iz vaqtni cho'zyapti ekan? Elli, biz qo'shningning qo'rg'onini topishimiz kerak. Uni topa olasanmi?

Qizcha bosh irg'adi.

U ozroq vaqt o'ylanib turgach, shipirib ketilgan o'zan bo'ylab yurib ketdi. Shamol shu zahotiyoyq yo'nalishini o'zgartirdi va qizchanning yuziga qarab esishni boshladi. Nihoyat yong'ir ham kuchayib ketdi, shu bois chorasiz qolgan elflar Ellining to'rvasiga kirib olishdi.

Elli shahd bilan yurishda davom etaverdi. Loy bo'lib ketgan yerda oyoqlari mayishib, hozir o'ynoqi olovlari harorat ufurib turgan issiqqina uyida bo'lib qolishni orzu qilardi.

Bir-bir yarim soatlar o'tib, dugonalar Robert Nortonning kulbasiga yetib kelishdi. Keksa Robert amaki chorva ishiga uquvsiz edi-yu, lekin oqko'ngil inson va qo'li gul usta sifatida qo'shnilar orasida hurmati baland edi. U abjag'i chiqib ketgan g'ildirama o'roqni ham ta'mirlay olar, o'choq qurishda unga

yetadigani yo‘q, quduqni qayerdan kovlash kerakligini ham bir qarashda bexato aytib berardi. Robert amaki ayniqsa g‘aroyib o‘yinchoqlarni mohirona yasay olishi bilan mashhur edi. Uning oilasi yo‘q, yuragining butun qo‘rini atrofdaagi bolalarga hadya etardi. Elli ko‘p marta dadasi bilan uning uyiga borgan. Kattalar dasturxon atrofida shoshmaygina suhbat qurib o‘tirgan chog‘larida u o‘yinchoq poezdlar, tegirmonlar va kemalar bilan to‘lib-toshgan kattakon xonada zavq bilan yelib-yugurib o‘ynardi.

Qariya odam qo‘g‘irchoqlarni unchalik o‘xshata olmasdi, lekin ichiga poxol tiqilgan baxmaldan ishlangan hayvonlarni tirigidan ajratib bo‘lmasdi. Elli dadasi bilan uyga qaytayotganida esa qariya yoqimtoy qizchaga yoqib qolgan har qanday o‘yinchoqni sovg‘a qilib yuboraverardi. «Xohlagan narsangni olver, shiringinam Elli, lekin tez-tez kelib turgin», — derdi u qizchani kuzatayotib. «Albatta kelaman», — shodon javob berardi Elli va Robert amakining moviy ko‘zlaridagi ma‘yuslikni ko‘rib, bunga ajablanardi. Nortonning vafot etganini u muallimlar tayyorlash kollejida o‘qib yurganida eshitdi. Otasining aytishicha, qariyaning qo‘rg‘oni uning uzoq qarindoshlariga qolibdi. Ular uyni sotmoqchi bo‘lishibdi-yu, lekin xaridor topa olishmabdi — chunki xo‘jalik juda xarob holga kelib qolgan ekan. Keyin dahshatli qurg‘oqchiliklar boshlanib, Robert Nortonning qo‘rg‘oni haqida hatto uning yangi egalari ham eslamay qo‘yishgandi.

Elli qulab yotgan chetan to‘siqdan sakrab o‘tdi va qiys hayib yotgan uyga botinmaygina yaqinlashdi. Kulbaning ostonasi tizzagacha turli xil chiqindilarga to‘lib ketgandi, shu bois Elli eshikni ochib, uy ichiga kirib olgunicha tinkasi qurib hovli tozalashiga to‘g‘ri keldi.

Robert amakiga bir vaqtning o‘zida ham yotoqxona, ham oshxona bo‘lib xizmat qilgan kichikkina xona bo‘m-bo‘sh edi. Kimdir bu yerdan hamma jihozlarni — hatto siniq kursigacha tashib ketibdi. Mehmonxonada esa... Elli zavqdan qo‘llarini o‘ynatib yubordi! U nimqorong‘ida har yerda tartibsiz sochilib yotgan sevimli o‘yinchoqlarini ko‘rib qoldi. Ular qariyaning qarindoshlarini qiziqdirmagan shekilli.

Elflar yomg‘irda ivib ketgan qanotlarini quritish uchun shift tagida chir aylanib ucha boshlashdi. Ular Elli uchun maxsus ravishda uchqunsochar cho‘plarni yondirishdi: elflar belbog‘lariga doim mushakbozlik uchun ishlatiladigan uchqunsochar cho‘plarni qistirib yuradilar. Yarqiroq uchqunlar xonani chaqnoq yorug‘likka to‘ldirdi. Qizcha ochlikni va charchoqni ham unutilib, yerga tizzalab oldi va birvarakayiga bir qancha sevimli o‘yinchoqlarini bag‘riga bosdi: kulgili

qilib ishlangan Tom laqabli baxmal ayiqcha, xunuk, lekin juda mehribon qo'g'irchoq Roza va albatta Rodni laqabli ayyor tulkicha.

— Salom mening yoqimtoy do'stlarim! — dedi hayajonlanib ketgan Elli. — Men ulg'ayib katta bo'lganimdan so'ng sizlarni qanchalik ko'p sog'inib eslaganimni bilsanglar edi!

— Biz ham seni sog'inganmiz, — kutilmaganda tilga kirdi Rodni va qizchani yuzlaridan yalab-yalab qo'ydi.

— Shunaqa, — deya yo'g'on ovoz bilan tasdiqladi Tom va Elliga qornini qashlatish uchun o'g'irilib yotib oldi.

— Nega sen uzoq vaqt kelmay qo'yding? — gina qildi Roza va keskin harakat bilan qizning qo'lidan bo'shalib chiqib, yerga sakrab tushdi. — Bizlar shunaqangi zerikib ketdikki...

— Voy! — qichqirib yubordi Elli va yerga o'tirib qoldi, jonlanib qolgan o'yinchoqlarga sarosima ichida tikilib qoldi. — Siz... sizlar... jonlimisizlar? Shunaqasi ham bo'larkanmi?

— Tom, yosh bekamizga tushuntirib qo'y, — ayiqchaga buyurdi Roza.

Ayiqcha Ellidan ham ortiqroq hayratga tushgan elflar parvoz qilib yurgan shift ostiga qarab qo'ydi. Qo'llarini orqasiga qilib, bir oyog'ini oldinroq qo'yganicha, jiddiy tarzda o'zicha tomoq qirib, yo'talib olgan bo'ldi.

— Albatta, men hammasini tushuntirib beraman, — dedi gumburlagan ovozda. — Uchalamizning oramizda men eng aqlliman, to'g'rimi, do'stlar? Gapning ochig'ini aytganda, tushuntiradigan narsaning o'zi yo'q. Chunki nega bunday bo'lganini biz o'zimiz ham bilmaymiz.

— Rostdan ham bilmaymiz, — bir ovozdan tasdiqlashdi tulkicha bilan qo'g'irchoq.

— Lekin... axir sizlar ilgari so'zlashni ham, harakatlanishni ham bilmasdinglar-ku, — dedi Elli o'zining olis bolalik yillaridagi do'stlariga hayronlik bilan boqib. — Endi esa... sizlarga nimadir bo'ldimi?

— To'g'ri, — jiddiylik bilan bosh irg'adi Tom va oyog'ini tapirlatib qo'ydi. — Sen rost gapni gapirding, Elli. Bu g'alati kunni biz juda yaxshi eslab qoldik. Lekin bu bilan biror narsani tushunib qolganimiz ham yo'q...

Tulkicha betoqatlik bilan chiyillab, bir sakrashda qizchani tizzasiga chiqib oldi va shosha-pisha javray ketdi:

— Sen bu qipiqkallaning aljirashini eshitib ovora ham bo'lma, Elli. U bir soat nimalarnidir valdiraydi-yu, nima deyayotganini o'zi ham tushunmay o'tiraveradi.



O'ziam lekin rosa mijg'ov-da. O'zining mulohazalariyu, tushuntirishlari bilan Roza ikkalamizni jonimizdan to'ydirib yubordi, ammo baloniyam tushuntirib bera olgani yo'q. O'tgan hafta javonning zambaraklar terib qo'yilgan eng yuqorigi rafiga chiqqan edi. Bitta zambarakni pastga tashlamoqchi bo'luvdi. Chunki biz dushmandan himoyalanimiz kerak-ku. Buning o'rniga o'zi yerga boshi bilan yiqilib tushdi. O'shandan beri og'zi yopilmaydi, jag'i tinmaydi — buning qanday yuz berganini tushuntirish uchun allanimabalolarni takrorlayveradi. Faqat bugun ertalabgina u o'z hikoyasining javon yonidagi pardaga osilib, yuqorigi raf tomon ko'tarilishni boshlagan joyiga yetib keldi. Kun bo'yi ko'tarilishni qanday boshlagani haqida biror tushunarli so'z aytganicha yo'q...

— Jim bo'l, Rodni, — qat'iy buyruq berdi Roza va namoyishkorona qo'l siltadi. — Ko'rdingmi, Elli, bu tulki bilan ayiqning miyasida aqldan asar ham yo'q! Chunki Robert amaki ularning tanasiga poxol, kallasiga qipiq to'ldirib, ustidan eski oromkursidan sidirib olingan baxmalni qoplab qo'yaqolgan. Xayriyatki, u mening boshimga paxta to'ldirgan, agar men bo'lmasam, bu ikkita vaysaqilar valdiray-valdiray umringni ham bekorga o'tkazib yuborishar edi. So'zlarimni diqqat bilan eshit, Elli. Sizlar ham tinglanglar, g'alati yaltiroq qurtlar...

Rozaning hikoyasi juda ham uzun va tafsilotlarga boy bo'ldi. Bir vaqtlar, o'limidan sal oldinroq Robert Norton nihoyatda yolg'izlanib qolibdi. Chorvachilik va dehqonchilik mashaqqatlari bilan band bo'lgan qo'shnilari undan ikki oy mobaynida xabar olisholmabdi va uning uyiga bolalarini ham olib kelishmabdi. Shunda qariya ularning huzuriga o'zi mehmon bo'lib borishga qaror qilibdi.

O'zining yagona otini aravaga qo'shib, eng yaqin joylashgan qo'rg'onga yo'l olibdi. Sovg'a sifatida qariya uchta o'yinchoqni — Roza, Tom va Rodnini olibdi. Ko'proq o'yinchoq olib borsa ham bo'larkan-u, ammo bolalarning o'zlari uning huvillagan uyiga borib o'yinchoq o'ynashlarini juda ham xohlar ekan. Usta bobo yo'lda ovoz chiqarib o'zining o'tgan yillarini esga olibdi va bir payt Elli haqida so'z ochib qolibdi. U Ellini boshqa bolalardan ko'ra ko'proq yaxshi ko'rganidan, qizchani voyaga yetib, shaharga o'qishga ketib qolgani uchun juda afsusda ekan. «Lekin u qaytib keladi! — ishonch bilan debdi qariya va zo'rg'a qadam bosib borayotgan qirchang'isiga qamchi uribdi. — Elli Sehrli mamlakatda bo'lib qaytgan, shu bois uni g'ayrioddiy taqdir kutmoqda! Ko'pchilik odamlar uning so'zlariga ishonishmaydi, men esa ishonaman, chunki o'zim ham oddiy odamlardan emasman. Bir kun kelib, Elli o'zining qardon uyiga yana qadam qo'yadi...»



Uchta o'yinchoq esa aravaga to'shalgan yumshoq poxol ustida yotganlaricha, Norton boboning javrashlarini diqqat bilan eshitib borishardi. Donishmandlarning aytishlariga qaraganda, o'yinchoqlar tevarak atrofda bo'layotgan hamma narsani yaxshi tushunishar ekan-u, lekin sukut saqlashga majbur ekanlar — chunki ular jonsiz buyumlar-da... Kutilmaganda ular tepalaridagi tiniq osmonni qora bulutlar qoplab olganini ko'rishdi. U pastga tushib borib, oqibatda quyoshni butkul to'sib qo'ydi. Bulutlar orasidan qop-qora ko'ylagini hilpiratganicha, bir yalmog'iz uchib chiqdi va to'ppa-to'g'ri kelib aravaning ustiga qo'ndi. Uning og'irligidan g'ildiraklar g'ichirlab ketdi — yalmog'izning bo'yi ikki odam balandligicha kelardi, oyoq panjalari ulkan, o'zi rosmana devday kelardi. Qo'lida daraxt shoxidan qilingan yog'och aso<sup>3</sup> ushlagan. Asoning bandida og'zini katta ochgan dahshatli mahluqning kallasi mahorat bilan o'yib ishlangan.

— Sen qaysi qizcha haqida gapiryapsan, boboy? — so'radi xirqiroq tovushli yalmog'iz. — Elli Smit haqida emasmi?

Robert amaki ortiga o'girildi va aravaning o'rindig'idan otilib tushay dedi. Lekin jasur, ko'pni ko'rgan odam bo'lgani uchun tezda o'ziga kelib oldi.

— Sening nima ishing bor, qari qarg'a? — g'azab bilan dedi u. — Mening aravamga qayoqdan chiqib qolding — osmondan qulab tushdingmi nima balo?

— Menga qo'pollik qilma, — norozi ohangda javob qildi yalmog'iz va qariyaning beliga hassasi bilan turtib qo'ydi. Aso tekkan joyda shu zahotiyog' ulkan bukur paydo bo'ldi. — Agar sarkashlik qilsang yoki yolg'on gapirsang — qilmishingga qattiq pushaymon bo'lasan. Bukri bo'lish yomon, suvilon bo'lib yashash esa undan battar. Yoki suvilonga aylantirib qo'yaymi?

U o'z qilig'idan kibrlanib, sovuq hingirladi. Robert Norton bu ishdan qo'rqishga qo'rqqani yo'g'-u, lekin o'zini yoqimsiz his etdi. U duduqlanib javob berdi:

— Meni yaxx-shisi q-qora ilonga aylantirib q-qo'yaqol, Tovoningga zaharli tishimni b-botirib olaman. Lekin s-sen alvastiga hatto z-zahar ham ta'sir qilmasa k-kerak.

— Men zaharni nonushtada sut o'rniga ichaman, — ishshayib javob berdi yalmog'iz. — Qani, endi Elli Smit haqida gapirasanmi?

— Unda nima ishing bor edi? — xavotirlanib so'radi qariya.

— Ellini ko'rmoqchiman, — quruqqina javob qildi yalmog'iz va yana bir marta qariyaning beliga hassasi bilan turti. Shu ondayoq bukur yo'qoldi va

<sup>3</sup> Aso — hassa.



Robert amaki yoshgina yigitga aylanib qoldi — mo‘ylovlari qop-qora, qalin sochlari jingalak o‘ktam yigit — Agar menga shu ishda yordam bersang, balki navqironligingcha qolib ketarsan.

— Sening shu mehribonligingga ishongim kelmayapti-da, — noxush ming‘irlab qo‘ydi Robert o‘zining baquvvat, bitta ham burishiq tushmagan qo‘llariga hayratlanib boqqanicha.

— Ishonmaslikka haqqing bor, albatta. Lekin Elli meni ko‘rsa, benihoya quvonib ketadi. Men uning do‘stlaridan xushxabar keltirganman. Elli ham ularni rosa sog‘ingan bo‘lsa kerak, chunki ular uzoq vaqt ko‘rishishmagan...

Robert yalmog‘izga tikilib turdi-turdi-da, oxiri sabri chidamasdan, so‘radi:

— Demak, sen Kanzasga Sehrli mamlakatdan kelibsan-da?

— Xuddi o‘sha yoqdan keldim, opovsi, bunga shubha qilmasang ham bo‘ladi, — ishshaydi kampir o‘zining sarg‘ayib ketgan, bo‘rining qoziq tishiga o‘xshash vahshatli tishlarini irg‘atib. — Sen bu haqda qayoqdan bilasan? Qizcha mahfiy sirni oshkor qilibdi-da?

— Har holda uyoq-buyoqdan eshitganim bor, — mavhumroq jumla bilan javob qildi Robert. — Ammo qizaloq u yerda boshqa jodugar qolmaganini aytgandi. Faqat ikkita oqko‘ngil sohiralar qolgan ekan... anaqa... nimaydi... ismlarini unutib qo‘yibman...

Kampirning basharasi gezardi, ko‘zlarida yovuz o‘t chaqnadi.

— Qizchang yanglishibdi, — dedi u xirillab. — Xo‘sh, endi Smitlarning uyiga boramizmi? O‘zim uchib boraversam ham bo‘lardiyu, lekin ortiqcha dabdabasiz kirib borganim ma‘qulmikan, deb o‘ylab qoldim.

— Biz u yoqqa borishimizga hojat yo‘q, — javob qildi Robert yovuz yalmog‘izga o‘ychan tikilib. — Elli allaqachon shaharga ko‘chib ketgan. Uni o‘sha yerdan izlayver.

— Bekorlarni aytibsan, opovsi, — muloyimlik bilan dedi yalmog‘iz. — Qizchang kuni kecha ota-onasining uyiga mehmon bo‘lib keldi — men buni sehrli kitobdan o‘qib bilib oldim. Sen ko‘pam qo‘rqaverma, men unga yomonlik qilmoqchi emasman. Undan bir-ikki narsani so‘rab-bilib olaman-da, shu bilan oramiz ochiq. Ey, mitti fitnachalar, sizlar nimaga quloqlaringni ding qilib oldilaring?

Robert yalmog‘izning shundoq yonginasida sochilib yotgan o‘yinchoqlarga qahr-g‘azab bilan olayib qarayotganidan hayratga tushdi.

— Bular shunchaki qipiqdan ishlangan o‘yinchoqlar-ku... — deya endi gap boshlagan edi, yalmog‘iz jahl bilan so‘zini bo‘ldi:

— Sen o‘zing qipiqdan yasalgansan! Bu bir qarich fitnavoylar hammasini eshitishdi. Qara! — U Roza, Tom, va Rudniga hassasining uchini salgina tekkizib qo‘ygandi, o‘yinchoqlar shu ondayoq jonlandi. Ular o‘tirib olib, xuddi uyqisirayotganday boshlarini sarak-sarak qila boshlashdi.

— Ana shunaqa, kichkina yaramaslar, — tishlarini irg‘aytirdi kampir. — Ana endi gapirlaring. Ortimdan josuslik qilish uchun sizlarni kim jo‘natdi?

Tom kiborlarcha tomoq qirib olib, jiddiy qiyofada dedi:

— Men sizga hozir hammasini tushuntiraman, marhamatli xonim...

— Men qanaqasiga senlarga marhamatli xonim bo‘larkanman? — quturib ketdi yalmog‘iz. — Agar bir xalta qipiq bo‘lmaganingdami, men seni...

— Jahl qilishning nima hojati bor? — bosiqlik bilan tanbeh bergan bo‘ldi Tom, — Gapni bir kuni Robert amaki eski oromkursini chiqindixonaga tashlab yubormoqchi bo‘lganidan boshlayqolaylik. Uning sirtiga to‘q sariq rangli baxmal qoplangan edi.

Tom shu so‘zlar bilan o‘zining hayotdagi ilk nutqini boshladi. U o‘zining mayin, yoqimli ovozi bilan shunchalik vazmin va asosli so‘zlar ediki, yalmog‘iz beixtiyor uni diqqat bilan tinglay boshladi. Oradan naq yarim soat o‘tgachgina, u ayiqchanning hali ham Robert amakisi unga tugmachadan qanday qilib ko‘z tikib qo‘yganiyu, har safar ignasini yo‘qotib qo‘yanini tinmay takrorlayotganini fahmlab qoldi.

— Sen meni mazah qilyapsanmi? — xunuk chinqirdi u va Tomning boshiga bir tushirdi. Ayiqcha esa yuqoriga bir sakrab, kampirning uzun changaksimon tumshug‘iga timoqchalarini botirdi.

Yalmog‘iz g‘azabidan rosmana chinqirib yubordi. Robert uning nogahoniy sarosimasidan shu ondayoq foydalanib qoldi: kampirning qo‘lidan hassasini yulib olib, yalmog‘izning beliga qarsillatib tushirdi.

U kutilmagan hamlalardan talmovsirab bir sakrab tushdi. Asoning boshqa uchidan ushlab, osmonga sapchidi. Robert ham unga taslim bo‘lishni istamasdan, asoga osilganicha aravadan yuqoriga ko‘tarila boshladi.

— Qo‘yib yubor! — chiyilladi yalmog‘iz qoziq tishlari turtib chiqqan o‘raday og‘zidan sariq tupuklarini sachratganicha.



— Yo‘q! — baqirdi unga javoban Robert. — Abjag‘ingni chiqarmasimdan jo‘nab qol!

Yalmog‘iz bor kuchini to‘plab, yana bir necha quloch yuqoriga ko‘tarildi. Lekin Robert ham bo‘sh keladiganlardan emasdi. Tez orada yosh, baquvvat yigit bilan olishuv kampirning tinkasini quritdi. U bo‘krganicha asoni qo‘yib yubordi va alamli chinqirganicha qora bulutlar orasiga singib g‘oyib bo‘ldi:

— Men hali yana qaytib kelaman! Lekin sen ungacha joyi rostoningga jo‘nab bo‘lgan bo‘lasan, tentak!

O‘yinchoqlar qora bulutlar to‘dasining shimoli-sharq tomonga shiddat bilan uchib ketganini ko‘rishdi. Robert esa dodlaganicha yerga quladi. U toshloq yerga boshi bilan qattiq urildi. Yuqoridan uning kallasiga yalmog‘izning hassasi kelib tushdi. Afsuski, Robert amaki shu zahotiyoc yana munkillagan qari cholga aylandi...

Elli bilan elflar qo‘g‘irchoqning tafsilotlarga boy hikoyasini hayratlanib tinglashdi.

Qizchani hatto Tomning xiraligi ham bezor qila olmadi: ayiqcha qizning yelkasiga chiqib olib, uning qulog‘iga o‘zining qanday sifatli qipiqdan ishlangani haqida shang‘illay boshladi: — «Men allaqanaqa qarag‘ay yoki qoraqarag‘ayning qirindisi emas, balki haqiqiy eman qipig‘i bilan to‘ldirilganman, shu bois menga teng keladigan o‘yinchoqning o‘zi yo‘q».

Tulkicha Rodni esa bu paytda xona ichida tinim bilmay u yoqdan bu yoqqa yugurar, xatto shift ostida uchib yurgan elflarga changal solish uchun havoga baland sakrashga harakat qilardi. Lekin bir payt u to‘satdan shartta to‘xtab, uzun tumshug‘ini likillatdi va bezovta chiyillab yubordi:

— Xatar!

Roza bilan Tom birdaniga jimib qolishdi. Ular do‘stlarining sezgisiga ishonishar edi.

— Nima bo‘ldi? — sekingina so‘radi Elli va nimqorong‘i xonani qo‘rquv ichida ko‘zdan kechirdi.

— Uyning atrofida kimdir yuribdi! — dodlab yubordi tulkicha. — Tom, zambarakni eshik oldiga sudra — biz himoyalanamiz!